Abstract: The article discusses the specific aspects of assessing the creditworthiness of construction organizations. Based on the industry characteristics, a methodology for the digitalization of creditworthiness assessment in construction organizations has been developed, and its advantages have been demonstrated. The use of a scoring model in the digital creditworthiness assessment process has been revealed. The scoring model was built using financial indicators (liquidity ratios, balance liquidity, collateral coverage, efficiency indicators, stability indicators, and the Altman model) and non-financial indicators (overall credit history, credit collateral, feasibility of the construction project, product competitiveness, and business reputation).

Key words: creditworthiness, construction project, techno-economic feasibility, credit risk, credit risk mitigation, financial indicators, non-financial indicators, scoring model.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности оценки кредитоспособности строительных организаций. Исходя из отраслевой специфики, разработана методика цифровизации оценки кредитоспособности строительных организаций и показаны её преимущества. В цифровом процессе оценки кредитоспособности строительных организаций раскрыты возможности применения скоринговой модели. При построении скоринговой модели использованы финансовые показатели (показатели ликвидности, баланс ликвидности, обеспеченность, эффективность, устойчивость и модель Альтмана) и нефинансовые показатели (общая кредитная история, кредитное обеспечение, реалистичность строительного проекта, уровень конкурентоспособности товара, деловая репутация).

Ключевые слова: кредитоспособность, строительный объект, технико-экономическое обоснование, кредитный риск, снижение кредитного риска, финансовые показатели, нефинансовые показатели, скоринговая модель.

KIRISH

So'nggi yillarda iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliyaviy institutlar faoliyatida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, kredit munosabatlari jarayonida qarz oluvchilarning moliyaviy barqarorligi va to'lovga layoqatligini baholashda ilg'or axborot tizimlari va raqamlashtirish yondashuvlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qurilish sohasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu tarmoqda faoliyat yurituvchi tashkilotlarning kredit resurslariga bo'lgan ehtiyoji yuqori darajada. Shu bois qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatligini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonni tezkor, shaffof va aniq amalga oshirish uchun raqamlashtirish imkoniyatlaridan keng foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

An'anaviy baholash usullari ko'p hollarda subyektiv yondashuvlarga asoslanib, qaror qabul qilishda inson omiliga yuqori darajada bog'liq bo'lgan. Bu esa moliyaviy xavf-xatarlarning ortishiga va resurslardan samarali foydalanilmasligiga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqilayotgan skoring tizimlari, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili va sun'iy intellekt algoritmlari esa kreditga layoqatlilikni baholash jarayonini avtomatlashtirish, inson xatosini kamaytirish hamda qarorlarni tezkor va asosli qabul qilish imkonini bermoqda.

Mazkur mavzu dolzarbligi shundaki, qurilish tashkilotlarida kreditga layoqatlilikni baholashni raqamlashtirish nafaqat bank-moliya tizimida risklarni pasaytiradi, balki sohada investitsiya jozibadorligini oshirish, loyiha moliyalashtirish samaradorligini kuchaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu ilmiy maqolada qurilish tashkilotlari kreditga layoqatligini baholash jarayonini raqamlashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi, mavjud muammolar va ularning yechimlari yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish sohasida kreditga layoqatlilikni baholashni raqamlashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ikki asosiy oqimni qamrab oladi. Birinchi yo'nalish an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar va ekspert baholarini statistik modellar, regressiya usullari va scorecard texnologiyalariga integratsiyalashni o'z ichiga oladi. Ikkinchi yo'nalish esa katta ma'lumotlar va mashina o'rganish usullaridan foydalanib aniqlik, tezlik hamda shaffoflikni oshirishga qaratilgan. Bart Baesens o'z tadqiqotlarida kredit skoringda Big Data va sun'iy intellekt imkoniyatlari qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish, inson xatosini kamaytirish va risklarni boshqarishda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv qurilish tashkilotlari misolida ham o'z dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Xitoyda olib borilgan tadqiqotlarda B. Xiong qurilish pudratchilarini baholash uchun joriy etilgan Construction Contractor Credit Scoring tizimini o'rganib, skoring ko'rsatkichlarining tender jarayonlarida muvaffaqiyatga erishish hamda keyingi moliyaviy barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Uning tahlillari qurilish sohasiga xos indikatorlarni — loyiha tarixi, texnik imkoniyatlar, sifat kafolati va ichki nazorat tizimlarini — modelga kiritish zarurligini asoslab beradi. Shuningdek, Y. Peng va hamkorlari kredit risklarini erta aniqlash uchun ishlab chiqilgan raqamli ogohlantirish tizimlari qurilish tashkilotlarida to'lovga layoqatlilikni monitoring qilish va xavflarni oldindan prognozlash imkonini berishini ilmiy asoslab bergan.

Metodologik jihatdan turli yondashuvlar sinovdan o'tkazilgan. M. J. Rahman mashina o'rganish algoritmlaridan foydalanib qurilish kompaniyalarining moliyaviy qiyinchiliklarini bashorat qilish imkoniyatlarini ko'rsatgan bo'lsa, N. A. Gad qurilish loyihalarida moliyaviy risklarni modellashtirishga e'tibor qaratib, statistik va iqtisodiy usullarni birlashtirish samarali natija berishini ta'kidlaydi. Fuzzy-genetik modellashtirish asosida olib borilgan tajribalar esa noaniqlik va subyektiv ekspert baholarini inobatga olishda foydali yechim sifatida ko'rsatilmoqda. Shu bilan birga, alternativ ma'lumotlardan foydalanishga oid izlanishlarda mualliflar kredit skoringni yanada takomillashtirish uchun tender tarixi, ta'minotchilar tarmog'i, loyiha natijalari va hatto ijtimoiy hamda ekologik ko'rsatkichlarni ham qo'shish lozimligini qayd etadilar.

Adabiyotlarda keltirilgan amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, maxsus qurilish skoring tizimlari tender jarayonlarini shaffoflashtirish, korruptsiya darajasini pasaytirish va moliyaviy oqimlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Biroq tadqiqotchilar mavjud cheklavlarni ham tan olganlar. Ular orasida ma'lumotlarning sifati va mavjudligi muammolari, algoritmik tarfakashlik xavfi, regulyatorlik talablarining murakkabligi hamda ma'lumotlarni himoya qilish masalalari alohida o'rin tutadi. Shu bois kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda hududiy xususiyatlarga mos indikatorlar to'plamini ishlab chiqish, muqobil ma'lumotlar bazasini kengaytirish va shaffof skoring arxitekturasini yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatliligini baholash jarayonida zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish va ularni tahlil qilishga asoslanadi. Ma'lumotlar bank hisobotlari, moliyaviy ko'rsatkichlar, tender natijalari va loyihalar haqidagi ochiq manbalardan olinadi. Olingan ma'lumotlar statistik usullar, skoring modellari hamda raqamli tahlil vositalari yordamida qayta ishlanadi va baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tub zamirida qurilish sohasini tubdan isloh qilishga qaratilgan. Jumladan, qurilish xarajatlarini kamaytirish hisobiga qurilishga ketayotgan vaqtni 30 foizga kamaytirish hamda qurilish tannarxini 20 foizga arzonlashtirish[1] vazifasi yuklatilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun qurilish tashkilotlari yangi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanishi zaruriyati yuzaga keladi. Buning natijasida qurilish tashkilotlarida moliyaviy resurslarga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Hozirda qurilish tashkilotlari moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni asosan bank kreditlari hisobiga qondirib kelmoqda. Tijorat banklari tomonidan 2023-yilda jami 276 975,0 mlrd so'm kreditlar ajratilgan bo'lib, shundan 4939,5 mlrd so'm qurilish tashkilotlariga berilgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilda jami kredit hajmi 326 386,0 mlrd so'mni tashkil etib, shundan qurilish tashkilotlariga 6745,4 mlrd so'm ajratilgan. Qurilish tashkilotlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2024-yil 2023-yilga nisbatan 36,6 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin[2]. Bu esa qurilish tashkilotlari tomonidan bank kreditlariga bo'lgan ehtiyojning oshayotganligini, ushbu sohada kredit risklarini pasaytirish zarurligini taqozo etadi. Tijorat banklarining kredit siyosatidan kelib chiqib, bank kreditlarini jalb qilish ma'lum mezonlarga javob berish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tijorat banklarining mezon talablari asosan kredit riskini minimallashtirishga qaratilgan bo'lib, bunda tarmoq xususiyatiga katta e'tibor qaratiladi.

Qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatliligini tahlil qilishda tarmoq xususiyatini hisobga olish kerak, chunki bu tahlil natijalarini to'g'ri baholash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakli va tarmoq xususiyatidan kelib chiqib, kreditga layoqatliligini baholash tijorat banklariga kredit riskini minimallashtirish imkonini beradi. Qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatliligini baholashda tarmoq xususiyatini inobatga olish muhim hisoblanadi.

Qurilish tashkilotlarining tarmoq xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- buyurtmani bajarishda tushgan mablag'lar bosh pudratchi va subpudratchilar bajargan ishlariga mos ravishda taqsimlanadi;
- qurilish ishlari tugallangunga qadar moliyaviy resursga bo'lgan doimiy ehtiyoj yuzaga kelib, o'z vaqtida qondirilmasa, ish jarayonining to'xtashiga olib keladi;
- sarflangan xarajatlarning qaytimi uzoq vaqt talab qiladi;
- qurilish jarayonida cheklangan resurslardan foydalanilishi narxlarning rejaga nisbatan oshib turishiga sabab bo'ladi.

Qurilish sohasida qarz oluvchilarni kreditlash eng murakkab turlardan biri hisoblanadi, chunki qurilish jarayonini moliyalashtirish modelini yaratishni talab etadi. Shunga qaramay, banklar qurilish sohasini kreditlashda faol ishtirok etmoqda. Bunga sabab, birinchidan, banklarning kredit orqali daromad olishdan manfaatdorligi bo'lsa, ikkinchidan, qurilish tashkilotlarining kreditga keskin ehtiyoji mavjudligidir. Qurilish sohasidagi banklarning kredit faoliyati esa qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatliligini baholashning yaxshi yo'lga qo'yilgan metodologiyasi yo'qligi sababli murakkablashmoqda[10]. Bu esa qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatliligini baholashning zamonaviy metodlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Korxonalarining kreditga layoqatliligini baholashda aniq va tezkor baholash imkonini beruvchi modellardan biri — kredit skoring modelidir. Kredit sohasiga qiziqish ortib borishi natijasida kredit skoring muhim komponent sifatida ishlab chiqilgan[11].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatliligini baholashning quyidagi skoring modelini tavsiya etmoqchimiz. Qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatliligini baholash skoring modeli ikkita muhim jihat — moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar asosida 5 ta sinfga ajratish orqali amalga oshiriladi:

1. Moliyaviy ko'rsatkichlar (likvidlilik ko'rsatkichlari, balans likvidliligi, ta'minlanganlik ko'rsatkichlari, samaradorlik ko'rsatkichlari, barqarorlik ko'rsatkichlari va Altman modeli) asosida baholash;
2. Nomoliyaviy ko'rsatkichlar (umumiy kredit tarixi, kredit ta'minoti, qurilish loyihasining realligi, raqobatbardoshlik darajasi, biznes obro'si) asosida baholash.

Qishloq xo'jalik korxonalarining kreditga layoqatliligiga baho berishda umumiy 200 ball asosida moliyaviy ko'rsatkichlarga 100 ball va nomoliyaviy ko'rsatkichlarga 100 ball ajratiladi (1,2-jadval).

1-jadval. Qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatligiga moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash¹

| Ko'rsatkichlar nomi | Ball taqsimoti | Kreditga layoqatligi bo'yicha sinflarga ajratish | | | | | | | | | |
|--|----------------|--|------------|---|-----------|--|-----------|---|-----------|---|----------|
| | | 1-sinf | | 2-sinf | | 3-sinf | | 4-sinf | | 5-sinf | |
| | | Me'yori | ball | Me'yori | ball | Me'yori | ball | Me'yori | ball | Me'yori | ball |
| 1. Korxonalar likvidlik ko'rsatkichlari: | 15 | | 15 | | 12 | | 9 | | 6 | | 0 |
| Joriy likvidlik ko'effitsiyenti | 5 | 2< | 5 | 2>Jlk>1,5 | 4 | 1,5>Jlk>1 | 3 | 1>Jlk>0,5 | 2 | Jlk<0,5 | 0 |
| Tez likvidlik ko'effitsiyenti | 5 | 1,25< | 5 | 1,25>Tlk>1 | 4 | 1>Tlk>0,75 | 3 | 0,75>Tlk>0,5 | 2 | Tlk<0,5 | 0 |
| Muntolq likvidlik ko'effitsiyenti | 5 | 0,75< | 5 | 0,75>Mlk>0,5 | 4 | 0,5>Mlk>0,25 | 3 | 0,25>Mlk>0,1 | 2 | Mlk<0,1 | 0 |
| 2. Balans likvidligi tahlili | 20 | A1>P1 A2>P2 A3>P3 A4>P4 A5<P5 | 20 | A1>P1 A2>P2 A3>P3 A4>P4 A5<P5 bitta shart bajarilmasa | 15 | A1>P1 A2>P2 A3>P3 A4>P4 A5<P5 ikkita shart bajarilmasa | 10 | A1>P1 A2>P2 A3>P3 A4>P4 A5<P5 uchta shart bajarilmasa | 5 | A1>P1 A2>P2 A3>P3 A4>P4 A5<P5 umumian shart bajarilmasa | 0 |
| 3. Mablag'lar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari: | 15 | | 15 | | 12 | | 9 | | 6 | | 0 |
| O'z avlanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'effitsiyenti | 5 | O'ztk >0,5 | 5 | 0,5> O'ztk >0,2 | 4 | 0,2> O'ztk >0,1 | 3 | 0,1> O'ztk >0,05 | 2 | O'ztk <0,05 | 0 |
| TMZ bilan ta'minlanganlik ko'effitsiyenti | 5 | TMZtk >0,8 | 5 | 0,8> TMZtk >0,6 | 4 | 0,6> TMZtk >0,5 | 3 | 0,5> TMZtk >0,1 | 2 | TMZtk <0,1 | 0 |
| Kreditlarning ta'minlanganlik ko'effitsiyenti | 5 | Ktk >5 | 5 | 5> Ktk >4 | 4 | 4> Ktk >2 | 3 | 2> Ktk >1 | 2 | Ktk <1 | 0 |
| 4. Korxonalar faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili: | 15 | | 15 | | 12 | | 9 | | 6 | | 0 |
| Joriy aktivlar rentabellik ko'rsatkichi | 5 | Jar >40% | 5 | 40%>Jar>30% | 4 | 30%>Jar>20% | 3 | 20%>Jar>ID | 2 | Jar<ID (inflasiya darajasi) | 0 |
| Xususiy kapital rentabellik ko'rsatkichlari | 5 | Xkr >40% | 5 | 40%>Xkr>30% | 4 | 30%>Xkr>20% | 3 | 20%>Xkr>ID | 2 | Xkr<ID (inflasiya darajasi) | 0 |
| Sotish rentabellik ko'rsatkichi | 5 | Str >40% | 5 | 40%>Str>30% | 4 | 30%>Str>20% | 3 | 20%>Str>10% | 2 | Str<ID (inflasiya darajasi) | 0 |
| 5. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili: | 15 | | 15 | | 12 | | 9 | | 6 | | 0 |
| Mustaqillik ko'effitsiyenti | 5 | Mk >0,6 | 5 | 0,6>Mk>0,5 | 4 | 0,5>Mk>0,4 | 3 | 0,4>Mk>0,3 | 2 | Mk <0,3 | 0 |
| Qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat ko'effitsiyenti | 5 | 0,2>QO'ztk>0 | 5 | 0,4>QO'ztk>0,2 | 4 | 0,5>QO'ztk>0,4 | 3 | 1>QO'ztk>0,5 | 2 | QO'ztk >1 | 0 |
| Xususiy kapital xarakatchanlik ko'effitsiyenti | 5 | Xxk >0,5 | 5 | 0,5>Xxk>0,4 | 4 | 0,4>Xxk>0,3 | 3 | 0,3>Xxk>0,2 | 2 | Xxk <0,2 | 0 |
| 6. Altman modeli bo'yicha kreditga layoqatlikni baholash | 20 | Alm > 2,99 | 20 | 2,99>Alm>2,8 | 15 | 2,8>Alm>2,7 | 10 | 2,7>Alm>1,8 | 5 | Alm <1,8 | 0 |
| Umumiy ball | 100 | | 100 | | 78 | | 56 | | 34 | | 0 |

1 Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2-jadval. Qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatligiga nomoliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash²

| Ko'rsatkichlar | | Ball |
|---|--------|-----------|
| Korxonaning umumiy kredit tarixi: | | 20 |
| 3 yildan ortiq muddatda banklar, jumladan mijoz bankdan olingan kreditlarni o'z vaqtida va to'liq to'langan. | 1 sinf | 20 |
| 3 yilgacha muddatda banklar, jumladan mijoz bankdan olingan kreditlarni o'z vaqtida va to'liq to'langan. | 2 sinf | 15 |
| Oxirgi uch yilda banklar, jumladan mijoz bankdan kredit summasini (asosiy va foiz) belgilangan muddatlardan kechikib yoki qisman to'langan. Biroq kredit va uning foizlari to'liq qaytarilgan (bir oygacha muddat ichida). | 3 sinf | 12 |
| Oxirgi uch yilda banklar, jumladan mijoz bankdan olingan kredit summasi(asosiy va foiz) belgilangan muddatlardan kechikib yoki qisman to'langan. Biroq kredit va uning foizlari to'liq qaytarilgan (bir oydan ortiq muddatda). | 4 sinf | 9 |
| Banklar, jumladan mijoz bankdan olingan kredit summasini (asosiy va foiz) to'liq to'lanmaganda. | 5 sinf | 0 |
| Kredit ta'minoti: | | 50 |
| Ta'minot zamonaviy, yuqori likvidli, yetarli, egalik huquqi korxonaga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli mutloq barqaror. Sug'urta polisi kreditni to'liq qamragan va to'liq davrga olingan. | 1 sinf | 50 |
| Ta'minot yangi, likvidli, yetarli, egalik huquqi korxonaga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli barqaror. Sug'urta polisi kreditni 50%ini qamragan va davrning 50% olingan. | 2 sinf | 30 |
| Ta'minot 50%dan ko'p eskirgan, likvidli, yetarli emas, egalik huquqi korxonaga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli barqaror. Sug'urta polisi kreditni 25% dan 50%gacha qamragan va davrning 25%dan 50%gacha olingan. | 3 sinf | 20 |
| Ta'minot eski, nolikvid, yetarli emas, egalik huquqi boshqa korxonaga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli nobarqaror. Sug'urta polisi kreditni 25% dan kam qismini qamragan va davrning 25%dan kam qismi olingan. | 4 sinf | 10 |
| Ta'minot yaroqsiz holatga kelgan, nolikvid, yetarli emas, egalik huquqi boshqa korxonaga tegishli. Kafilning moliyaviy ahvoli bankrot oldi holatida. Sug'urta polisi kreditni 25% dan kam qismini qamragan va davrning 25%dan kam qismi olingan. | 5 sinf | 0 |
| Qurilish loyihasining realligi: | | 20 |
| Bankning kredit siyosati talablariga mos keladi va asoslangan axborot manbalariga ega. Loyihani amalga oshirish imkoniyati mavjud: korxonaning ijobiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi(asosiy va foiz) to'lashga yetarli. Loyihaning biznes-rejasi iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslangan. Korxonada kompetent xodimlar yetarli. Loyiha ekologik qo'lay sharoit. | 1 sinf | 20 |
| Bankning kredit siyosati talablariga mos keladi va asoslangan axborot manbalariga ega. Loyihani amalga oshirish imkoniyati mavjud: korxonaning ijobiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi(asosiy va foiz) to'lashga yetarli. Loyihaning biznes-rejasi iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslangan. Korxonada kompetent xodimlar soni yetarli emas. Loyiha ekologik qo'lay sharoit. | 2 sinf | 15 |
| Bankning kredit siyosati talablariga mos keladi va yetarli axborot manbalariga ega. Loyihani amalga oshirishda jiddiy tavakkalchilik mavjud. Korxonaning ijobiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi(asosiy va foiz) to'lashga yetarli. Korxonada kompetent xodimlar soni yetarli emas. Ekologik sharoit normal holatda. | 3 sinf | 12 |
| Bankning kredit siyosati talablariga to'liq mos kelmaydi va yetarli axborot manbalariga ega emas. Loyihani amalga oshirishda jiddiy tavakkalchilik mavjud. Korxonaning ijobiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi(asosiy va foiz) to'lashga yetarli bo'lishi tavakkalchilikka bog'liq. Korxonada kompetent xodimlar soni yetarli emas. Loyiha ekologik qo'lay sharoit emas. | 4 sinf | 9 |
| Bankning kredit siyosati talablariga mos kelmaydi va yetarli axborot manbalariga ega emas. Loyihani amalga oshirishda yuqori tavakkalchilik mavjud. Korxonaning salbiy moliyaviy natijasi hamda pul oqimi hajmi olinadigan kredit summasi(asosiy va foiz) to'lashga yetarli emas. Korxonada kompetent xodimlar soni yetarli emas. Loyiha ekologik qo'lay sharoit emas. | 5 sinf | 0 |
| Tovarlarning raqobatbardoshlik darajasi | | 5 |
| Bino shahar markazida joylashgan, sifati yuqori, qo'lay sharoit yaratilgan, zamonaviy dizaynga ega, sotish servisi yaxshi yo'lga qo'yilgan, talab yuqori. | 1 sinf | 5 |
| Bino shahar markazida joylashgan, sifati yuqori, sotish servisi yaxshi yo'lga qo'yilgan, zamonaviy dizaynga ega, talab mavjud. | 2 sinf | 4 |

2 Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

| | | |
|---|--------|------------|
| Bino shahar tashqarisida joylashgan, sifati o'rtacha, o'rtacha dizaynga ega, sotish servisi yo'lga qo'yilgan. | 3 sinf | 3 |
| Bino shahar tashqarisida joylashgan, sifati past, eski dizaynda qurilgan, sotish servisi talab darajasida emas. | 4 sinf | 2 |
| Bino aholi kam hududda joylashgan, sifati past, eski dizaynda qurilgan, sotish servisi mavjud emas, talab o'ta kam. | 5 sinf | 0 |
| Biznes obro'si | | 5 |
| Qurilish tashkilotining soha va tarmoqdagi o'rni yuqori, bozordagi obro'si yuqori, brend taniqli | 1 sinf | 5 |
| Qurilish tashkilotining soha va tarmoqdagi o'rni o'rtacha, bozorda o'z obro'siga ega, brendi xaridorlarga tanish | 2 sinf | 4 |
| Qurilish tashkilotining soha va tarmoqdagi o'rni sezilarli ahamiyatga ega emas, brendi xaridorlarga tanish emas. | 3 sinf | 3 |
| Qurilish tashkilotining soha va tarmoqdagi o'rni ahamiyatga ega emas, brendi xaridorlarga tanish emas. | 4 sinf | 2 |
| Qurilish tashkilotining soha va tarmoqdagi o'rni ahamiyatga ega emas, bozorda o'z obro'siga ega emas, brendi mavjud emas. | 5 sinf | 0 |
| Umumiy ball | | 100 |

Qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatliligini baholashning skoring modeli bo'yicha to'plangan jami ball 0 dan 200 gacha bo'lgan oraliqda 5 ta sinfga ajratilib o'rganiladi. 3-jadvalda sinflar bo'yicha to'liq tafsilot keltirilgan (3-jadval).

3-jadval. Sinflar bo'yicha kredit ajratish tartibi³

| Sinf | Qisqacha izoh | Jami (ball) |
|--------|---|-------------|
| 1-sinf | Bu toifadagi qurilish tashkilotlari kredit to'lay olish qobiliyati yuqori. Ushbu korxonalariga kredit umumiy tartibda imtiyozli asosda berish mumkin. | 146-200 |
| 2-sinf | Bu toifadagi qurilish tashkilotlari kredit to'lay olish qobiliyati ega. Ushbu korxonalariga belgilangan tartibda kredit ajratish mumkin. | 106-145 |
| 3-sinf | Bu toifadagi qurilish tashkilotlari kredit to'lay olish qobiliyati ega emas. Ushbu korxonalariga ayrim holatlarda kredit ajratish mumkin. | 66-105 |
| 4-sinf | Qurilish tashkilotlarining moliyaviy holati barqaror emas. Bu toifadagi qurilish tashkilotlarda kredit riski juda yuqori hisoblanadi. | 65 gacha |
| 5-sinf | Ushbu toifadagi qurilish tashkilotlariga kredit berilmaydi. | 0 |

Qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatliligini baholashning skoring modelining afzal jihatlari:

Ushbu model qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatliligini aniq, to'liq va keng qamrovli baholash imkoniyatiga ega.

Boshqa baholash metodlaridan farqli jihati — tarmoq xususiyatining hisobga olinganidir.

Amaldagi baholashdan farqli ravishda kreditga layoqatlilik holati 5 ta sinf asosida amalga oshiriladi. Bu banklar tomonidan qurilish tashkilotlarini kreditga layoqatlilik holati bo'yicha tanlash imkoniyatini oshiradi.

Kreditga layoqatlilikni baholash mezonlarini (kriteriyalarini) hisoblash usullari takomillashtirilib, aniqlik darajasi oshirildi.

Model xalqaro tajribalar inobatga olingan holda ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, respublikamiz banklari amaliyotida qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatliligini baholashda tarmoq xususiyatidan kelib chiqib baholovchi metodika mavjud emas. Bu esa ushbu sohaga tijorat banklari tomonidan katta risk ta'sirida kredit ajratilishiga olib kelmoqda. Natijada qurilish tashkilotlariga ajratilgan kreditlarda muammoli kredit hajmi ortmoqda.

Hozirda tijorat banklari tomonidan qurilish tashkilotlariga kredit ajratishda umumiy metodika asosida koeffitsiyentlar usulidan foydalanilib, faqat uchta koeffitsiyent orqali moliyaviy jihatlar baholanmoqda. Bu esa korxonaning kreditga layoqatliligini keng qamrovli va to'liq baholash imkonini bermaydi. Qolaversa, ushbu koeffitsiyentlarni hisoblashdagi kamchiliklar usulning noaniqlik darajasi yuqoriligini ko'rsatadi.

³ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Mazkur usulning yana bir kamchiligi shundaki, baholash tugallangan davr ma’lumotlari asosida olib boriladi va kredit kelgusi davrga ajratiladi. Holbuki, kelgusi faoliyatni oldindan bashoratlash muhim vazifalardan biridir.

Banklar tomonidan yetarlicha e’tibor qaratilmayotgan, biroq alohida ahamiyatga ega bo’lgan jihatlardan yana biri — nomoliyaviy ko’rsatkichlardir. Nomoliyaviy ko’rsatkichlar korxonalarining kelgusi faoliyati barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biridir.

Yuqoridagi mavjud kamchiliklarni inobatga olib, xorij tajribasini mujassamlashtirish hamda qurilish tashkilotlarining tarmoq xususiyatlarini hisobga olish asosida kreditga layoqatlilikni baholashning skoring modeli ishlab chiqildi. Ushbu model qurilish tashkilotlarining moliyaviy va nomoliyaviy ko’rsatkichlari asosida kreditga layoqatlilikini kompleks baholash orqali kredit riskini minimallashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo’shma majlisidagi nutqi. <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi-asosida-demokratik-islohotlar-yolini-qat'iy-davom-ettiramiz>
2. Tijorat banklari kredit qo’yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha ulushi - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (cbu.uz)
3. Jambekova R.L. Metodika sistemnoy ekonomicheskoy diagnostiki predpriyatiya. / Dis.... dr. ekon. Nauk., 2012. – 354 s.
4. Yendovskiy D. A., Baxtin K. V., Kovtun D. V. (2016) Analiz kreditosposobnosti organizatsii i gruppi kompaniy: uchebnoe posobie. - M.: KNORUS, - 376 s.
5. Yendovskiy D.A., Bocharova I.V. (2005) Analiz i otsenka kreditosposobnosti zaemshika. Uchebno-prakticheskoe posobie. M. : KNORUS. - 272 s.
6. Liferenko G.N. (2005) Finansoviy analiz predriyatiya: Ucheb.posobie.-M.: Ekzamen, s. 160
7. Naumchenkova Yu. V. (2016) Otsenka kreditosposobnosti zaemshika. Teoriya i praktika sovremennoy nauki. № 5. s.5
8. Raximov M.Yu. (2015) Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili.O‘quv qo‘llanma.-T.: “Iqtisod-Moliya”, 392 b.
9. Mamatov B.Sh., Qulliev I.Ya., Pulatova M.B. (2016) O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatlilikini baholash amaliyotini takomillashtirish. Monografiya.-T.: Extremum-press, 112 b.
10. Полховская Т.Ю., Чудновская Н.С. (2012) Особенности оценки и мониторинга кредитоспособности заемщиков строительного сектора(по материалам Юго-Западного банка Сбербанка России). Научный журнал «Инженерный вестник Дона»(сетевое издание), 3, 2012.
11. Alireza Hooman, Govindan Marthandan, Wan Fadzilah Wan Yusoff, Mohana Omid and Sasan Karamizadeh. Statistical and data mining methods in credit scoring. // The Journal of Developing Areas. Vol. 50, No. 5, Special Issue on the Kuala Lumpur Conference, November 23-24, 2015 (2016), pp. 371-381 (11 pages).



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS
AND MATHEMATICS

23-24

OCTOBER
2030

23-24
OCTOBER
2025

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY
23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН –2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS
ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI